Xalqaro investitsiya arbitrajlari va xalqaro tijorat arbitrajlari o'rtasidagi farqlar

Abduvaxobova Munisa Zafar qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Xalqaro investitsiya arbitrajlari va xalqaro tijorat arbitrajlari o'rtasidagi oz'iga xos farqli va o'xshash jihatlarini yoritilgan.

Kalit so'zlar: Xalqaro investitsiya arbitraji, xalqaro tijorat arbitraji, sud xarajatlari, arbitraj muddatlari, O'zbekistondagi arbitrajlar faoliyati, arbitraj yurisdiksiyasi.

Bugungi kunga kelib investitsiyaviy nizolar bilan birgalikda tijorat nizolari ham ko'payib bormoqda. Lekin bu ikkala arbitraj nizolari bir-biridan qanday farq qiladi? Ko'pchilik bu ikkala arbitraj o'rtasida deyarli farq yo'q deb o'ylashadi. Biroq ular o'rtasida ko'plab farqlarni ko'rishimiz mumkin. Investitsion arbitraj sudi xorijiy investor va qabul qiluvchi davlat o'rtasidagi nizolarni hal qilish uchun amalga oshiriladi va investor-davlat o'rtasidagi nizolarni hal etish – Investor-State Dispute Settlement (ISDS) deb ham ataladi va da'voning tabiati va shartlariga ko'ra Xalqaro tijorat arbitrajidan – International Commercial Arbitration (TIJORAT ARBITRAJI) farq qiladi. Birinchisi ikki Ahdlashuvchi Davlat o'rtasidagi ochiq shartnoma bo'yicha kelib chiqadigan nizolarni ko'rib chiqsa, ikkinchisi tijorat shartnoma majburiyatidan kelib chiqadigan nizolarni ko'rib chiqadi.

Ikki tomonlama investitsiya shartnomasiga (BIT) ko'ra, davlatlar boshqa Ahdlashuvchi Davlat investorlarini ma'lum huquq va himoyalar bilan ta'minlaydilar. Jumladan:

- adolatli va xolis muomala (Fair and Equitable Treatment);
- milliy muomala (National Treatment);
- eng ko'p qo'llab-quvvatlanadigan millat (Most Favoured Nation – MFN);
- ekspropriatsiyadan himoya qilish.

Ularning har biri xalqaro huquq asosida taqdim etiladigan himoyalardir. Hozirgi kunda butun dunyo bo'ylab 2344 BIT va investitsiya qoidalariga ega 314 ga yaqin shartnomalar amal qiladi.[1]

Tijorat arbitraji va investitsiya arbitrajini tartibga soluvchi huquqiy asoslar shu darajada farq qiladiki, tijorat arbitrajida yagona tegishli shartnoma Nyu-York konventsiyasidir. Har ikkisida ham milliy huquqning roli har xil. Tijorat arbitrajida huquqiy tizim arbitrajni boshqaradi va o'rinli ravishda milliy sudlarga hakamlik tartibi bo'yicha nazorat yurisdiktsiyasini beradi. Bundan tashqari, arbitrlar ishning mohiyatini hal qilish uchun moddiy milliy qonunchilikni qo'llaydilar. Biroq, investitsiya arbitrajida protsessual ravishda milliy qonunchilikning majburiy qoidalari, agar arbitraj investitsiya nizolarini hal qilish bo'yicha xalqaro markaz (ICSID) yoki Shimoliy Amerika erkin savdo bitimi (NAFTA) kabi shartnomalar bilan tartibga solinmasa, tegishli bo'ladi. Investitsion shartnomalar to'g'risidagi moddiy milliy qonun odatda qabul qiluvchi davlat qonunidir.

*Tijorat arbitrajida yurisdiksiya*ga oid nizolar asosan arbitraj shartnomalarining bandi, roziligi va uni imzolagan shaxslar doirasiga taalluqlidir. Biroq, investitsiya arbitrajida yurisdiksiyaga oid nizolarning ko'lami juda keng. Arbitrajga rozilik shartnoma asosida yuzaga

[1] https://investmentpolicyhub.unctad.org/IIA

keladi va Vena konventsiyasida qoidalarga to'g'ri tushishi kerak. Davlatning roziligi quyidagilarga bog'liq:

- BIT bo'yicha tushunilgan "investitsiya" mavjudmi yoki yo'qmi;
- Da'vogar o'z davlatining fuqarosimi yoki yo'qmi;
- Fuqaro haqiqatda investor kompaniyasiga egalik qiladimi yoki nazorat qiladimi?

BITdagi MFN bandi investitsion nizolarda muhim rol o'ynashi mumkin. Lekin BIT bo'yicha investor huquqlarini himoya qiluvchi band bo'lmasa, qabul qiluvchi davlatning boshqa davlatlar bilan tuzgan xuddi shu mazmundagi BITsidagi himoya usullari bilan investor o'z da'volarini talab qilishi mumkin. Bunday holat amaliyotga ko'p uchrab turadi.

Yana bir muhim farqi, protsessning maxfiyligi tijorat arbitrajining muhim qoidalaridan biridir. Biroq, investitsiya arbitrajida ICSID konventsiyasi va ko'pgina BITlar kabi asosiy vositalar maxfiylikdan uzoqlashadi. Shunday qilib, investitsiya arbitrajlarida konfidensiallik juda kam yoki umuman qo'llanilmaydi.

Ikki Ahtlashuvchi davlat o'rtasida nizo kelib chiqadigan bo'lsa, ikki o'rtada muzokara jarayonlari boshlanadi. Muzokaralar muvafaqqiyatli yakunlanmasa, nizo arbitrajda ko'rilishi to'g'risida taraflarga ma'lum qilinadi. Bunday holat tijorat arbitrajida uchrashi ham mumkin, uchramasligi ham. Ba'zi hollarda, Hindistonning 2015-yildagi BIT modelida bo'lgani kabi, investordan arbitrajga o'tishdan oldin barcha ichki huquqiy himoya vositalarini ishlatish talab qilinishi mumkin. Ba'zi shartnomalar bo'yicha esa investorlar mahalliy sudlarda yoki hakamlik sudida ham da'vo qilishi o'rinli.

Investitsion arbitrajlar va tijorat arbitrajilar ad-hoc yoki institutsional bo'lishi mumkin. ICC, LCIA va Singapur Xalqaro Arbitraj Markazi (SIAC) xalqaro tijorat arbitrajlarini olib boradigan eng mashhur arbitraj institutlaridan hisoblanadi, investitsiya arbitrajlar uchun esa ICSIDdir. Vashingtonda joylashgan ICSID Parijda Yevropa va Osiyo mamlakatlari uchun arbitrajlarni olib boradi. Investitsion arbitrajning o'rtacha muddati, sud tuzilgan paytdan boshlab sud qarori qabul qilinishigacha, uch yil bo'lishi mumkin. Investitsion arbitrajning o'ziga xos jihati apellyatsiya mexanizmining yo'qligi hisoblanadi, biroq hakamlik muhokamasi qarorni bekor qilishni tan olishi mumkin.[2] 2015-yilgi Hindiston masalasiga ko'ra, ular ad-hoc investitsiya arbitrajini belgilaydi.

Hakamlik sudini tanlash arbitraj jarayonidagi eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Buning sababi shundaki, ba'zi hakamlar "davlat tarafdori" yoki "investorni qo'llab-quvvatlovchi" yondashuvni qo'llashlari mumkin. ICSIDda qatnashuvchi taraflar o'zlari tanlagan arbitrlarni taqdim etadi. Investitsion arbitrajning tomonlari odatda hakam tanlashda juda ehtiyotkor bo'lishadi. Tijorat arbitrajida esa tomonlar tribunalni yagona hakam yoki uchta hakamdan iborat bo'lishini tanlashlari mumkin. Agar tomonlar uch a'zodan iborat sudni tanlagan bo'lsa, har bir tomon o'zlari tanlagan hakamni tayinlaydi va ikkita arbitr bir xilda uchinchi hakamni tayinlaydi, u odatda raislik qiluvchi hakam sifatida ishlaydi.

Investitsion arbitrajning xarajatlari yuqori bo'lganligi tufayli, tomonlar individual xarajatlarni, institutsional xarajatlarni, sud xarajatlarini va ekspert-mutaxasislar uchun yuridik to'lovlarni qoplashlari talab etiladi. Tomonlar ko'pincha hakamlik uchun uchinchi tomondan moliyalashtiradilar. Uchinchi tomonning moliyalashtirishi - bu arbitrajdan manfaatdor

[2] https://www.international-arbitration-attorney.com/investment-arbitration/

bo'lmagan tomon, agar moliyalashtirilgan tomon ishda g'alaba qozongan bo'lsa, har qanday mukofot yoki sudda yutulgan to'lovning kelishilgan foizini oluvchi tomondir. Biroq, moliyalashtirish jarayoni keng ko'lamli va mashaqqatli bo'lishi mumkin, chunki uchinchi tomon moliyachilari har qanday pul yordamini taqdim etishdan oldin sizning da'volaringizni ko'rib chiqadi, baholaydilar. Tijorat arbitrajida xarajatlar arbitraj joyiga, institutsional yoki ad-hocni tanlashlariga, shuningdek sudning kuchiga qarab o'zgaradi. Yana bir muhim jihati, ICSID konventsiyasining barcha ishtirokchilari xalqaro investitsiya arbitraj qarorlarini ijro etish bo'yicha ICSID konventsiyasining 53-55-moddalariga rioya qilishlari shart. Biroq, agar mezbon davlat ICSID konventsiyasining ishtirokchisi bo'lmasa, qarorning ijrosi 1958-yildagi Xorijiy arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish to'g'risidagi konventsiyaga muvofiq amalga oshiriladi.

Investitsion arbitraj va tijorat arbitraji o'rtasidagi asosiy farq har bir nizoning markazida yotadi. Tomonlar, nizoning tabiati va nizo kelib chiqadigan kelishuv kabi omillar har ikkala arbitrajni farqlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Investitsion arbitrajlar uchun protseslar sonini qisqartirish maqsadida, ayniqsa, ular juda katta xarajat bo'lganligi sababli, davlatlar quyidagilarni amalga oshirishlari kerak:

- mavjud BIT shartlari va ularning ichki huquqiy tizimi o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash;
- ichki davlat siyosatini buzmasa, xorijiy investorning himoyasini ta'minlash;
- nizo yuzaga kelganda arbitrajdan ko'ra, muzokaralar olib borish.

Shu vaqtgacha O'zbekistonda Xalqaro Tijorat Arbitraji o'z faoliyatini olib bormas edi. Biroq 2023-yil 27-aprel kuni Xalqaro Kongres markazida Ikkinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumi bo'lib o'di. Kongresda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev nutq so'zladi, ya'ni Prezident xorijiy kompaniyalar va tadbirkorlar bilan ko'proq hamkorlik qilishni ta'kidladi. Kongres davomida Prezidentimiz tariximizda ilk bor Xalqaro tijorat sudi o'z faoliyatini yo'lga qo'yilishini keltirib o'tdi. Bu mexanizmning ishga tushishi orqali tadbirkor va investorlar sudda o'z talabining to'g'riligini isbotlashi shart emasligini, endi davlat idorasi o'z qarorining qonuniyligini isbotlab berishga majbur bo'lishini anglatadi. Yuzaga kelgan har qanday noaniqliklar esa investor foydasiga hal qilinadi.

Xulosa qilganda, ishning mohiyati, mazmuni, nizoning tabiati, qilinadigan sarf-xarajatlar ishning tijorat arbitrajidami yoki investitsion arbitrajdami, qaysi birida hal qilinishini belgilaydi. Shuningdek yuqorida sanab o'tilgan holatlar ham ularning ikki xil, bir-biriga o'xshamaydigan jarayonlar ekanligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. UNCTAD Investment Policy Hub (2019);
2. International Arbitration Information, "Introduction to Investment Arbitration", Online Arbitration Resources. Accessed on March 08, 2019.
3. Xalqaro tijorat arbitraji va amaliyoti. Margaret L.Mozes. Uchinchi nashr.2020 – Toshkent.
4. International commercial arbitration. Gary Born. 2014.
5. Xalqaro xususiy huquq. Darslik. 2019 – Toshkent.

Internet manbalari:

1. https://kun.uz/